

MILLIY GVARDIYA BO'LINMALARINING EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNI SHART SHAROITLARI

Maxmudov Oybek Norqilichovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Magistratura tinglovchisi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi globallashuv sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojarolar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, terrorizm va ekstremizmga qarshi samarali kurashishga asoslar va uning asosiy printsiplari keng ilmiy yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekstremizm, terrorizm, terrorizmga qarshi kurashish, qonunchilik, konventsiya, deklaratsiya.

Terrorizmga qarshi kurashning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; terrorizmning oldini olish choralarini ustuvorligi; jazoning muqarrarligi; terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora usullarining uyg'unligi; jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o'tkaziladigan operatsiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.

Terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

terrorizmni targ'ib qilish; terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi; terrorchilik faoliyatiga daxldor yuridik shaxslarni, ularning bo'linmalari (filiallari) va vakolatxonalarini (shu jumladan chet el va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini) akkreditatsiya qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ularning faoliyat ko'rsatishi; terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi; tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni yashirish.

TERRORIZMGA QARSHI KURASH SOHASIDAGI VAKOLATLAR

O'zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga

chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta'minlash.

EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHGA OID O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGI

Insoniyat asrlar davomida urush va nizolarga barham berish uchun kurashib keladi. Butun insoniyat tarixida bizning sayyoramizda 15 mingdan ortiq urush bo'lib o'tgan. Bu urushlarda 3,5 mlrd atrofida odam halok bo'lgan¹². Shuning uchun ham insoniyat vujudga kelgan muammolarni tinchlik yo'li bilan hal etish haqida bosh qotirib kelmoqda. Afsuski, hozirgi davrda ham tinchlik ne'mati ko'plab mamlakatlar uchun hamon orzu bo'lib qolmoqda. Birgina XXI asrning boshlarida turli qit'alarda ro'y bergan va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar, qonli to'qnashuvlar va urushlar millionlab begunoh kishilarni qurbon bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yolg'on shiorlar bilan begunoh insonlarning yostig'ini quritayotganlar, aslida esa siyosiy maqsadlarni ko'zlab, dinni niqob qilib olgan turli ekstremist oqimlar va terrorchilik tashkilotlarning qing'ir ishlari butun insoniyatni halokat yoqasiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: *"Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Milliy strategiyamiz doirasida ilgari ekstremizm g'oyalari ta'sirida bo'lgan shaxslarni sog'lom hayotga qayqaytarish va jamiyatga moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etildi. Besh marta "Mexr" insonparvarlik missiyasi o'tkazildi, uning doirasida 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo ayollar vabolar Qurolli nizolar xududidan yurtimizga qaytarildi deb ta'kidlab o'tdi*¹³.

Ma'lumki, tinchlik - urush va nizolarga barham berish orqaligina ta'minlanadi. Afsuski, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishni ko'zlaydigan yovuz kuchlar bor ekan, sun'iy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham to'xtamaydi. Bunga shu davrgacha ba'zi mamlakatlarda ro'y bergan va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan qonli to'qnashuvlar misol bo'la oladi.

Ayniqsa, Suriya, Iroq, Shimoliy Afrika, Afg'onistonning kelajagi qanday bo'lishini hozirgi kunda hech kim bilmaydi. Ilgari gullab-yashnagan bu mamlakatlar qonli urushlar natijasida siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy parokandalikka uchramoqda. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra,

¹² Rahmanov F.E. Terrorizm. Terrorizmga qarshi ta'sir: Darslik – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2019. – 323 bet.

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 78-сессияси нутқи. Нью-Йорк ш, 2023 йил 19-сентябр.

birgina Suriyada 2011 yilda 21 million aholi istiqomat qilgan. Hozirgi davrgacha esa 300 mingdan oshiq insonlar halok bo'lganligi turli manbalarda qayd etilmoqda. Agar halok bo'lgan, yaralangan va boshqa davlatlarga qochishga majbur bo'lgan suriyaliklarning umumiy soni birlashtirilib chiqilsa, unda Suriya o'z aholisining deyarli to'rttdan bir qismini yo'qotganligi aniqlanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Suriyadagi mojaro eng yirik qonli urushlardan biri bo'ldi.

2019 yil O'zbekiston davlati tomonidan muborak Ramazon oyida yana bir xayrli, ulkan ahamiyatga ega "Mehr" insonparvarlik operatsiyasi amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning topshirig'iga binoan, 156 nafar fuqarolar, asosan ayollar va bolalar Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar hududidan yurtimizga qaytarildi. Ular 2019 yilning 30 may kuni maxsus aviareysda Toshkent shahriga olib kelindi. Aldov oqibatida o'zga yurtga borib qolib, og'ir hayotiy davrni boshidan o'tkazgan bu insonlarga Hukumat tomonidan tibbiy, psixologik, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Ularning tinch hayotga qaytib, jamiyatga moslashishlari, ta'lim va ijtimoiy dasturlarda ishtirok etishlari uchun zarur sharoit yaratildi, boshpana va ish bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH BO'YICHA XALQARO KONVENTSIYALAR

Terrorizm harakatlarini keskin qoralaydigan va bunday harakatlar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi va xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, inson huquqlari, erkinlik, adolat va hurmatni himoya qilish e'tirof etilsada terroristik taxdidlar va amaliy xarakat (terakt) lar sodir etilishi davom etmoqda.

Bugungi davrda butunjaxon xamjamiyati yuzaga kelayotgan vaziyatni birgalikda va xamkorlikda bartaraf etish, terrorchilik harakatlarining oldini olish va jazolash, xususan odam o'g'irlash, o'ldirish va boshqa jinoyatlar uchun javobgarlik choralarini qo'llash orqali, barcha choralarni ko'rish yo'lida o'zaro hamkorlik qilishga majburdirlar. Quyida ko'rsatib o'tilgan deklaratsiya, konventsiyalarning maqsad(modda)larida insonlarning xalqaro huquqlarga muvofiq va himoya qilishni talab qiladigan shaxslarning hayoti va jismoniy sog'lig'ini himoyalashga qaratilgan va ular quyidagilar:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;

"Amerika Davlatlari Tashkilotlarining "Xalqaro xususiyatga ega bo'lgan shaxsga qarshi jinoyat shaklidagi terrorchilikning oldini olish va jazolash to'g'risida"gi konventsiyasi;

Yevropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan va qabul qilingan "Terrorchilik bilan kurashish to'g'risida"gi konventsiya;

"Terrorizmning oldini olish bo'yicha" Yevropa Kengashi konventsiyasi

“Yollanma odamlarni jalb qilish, foydalanish, ularni moliyalash va ta’lim berishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Bombali terrorchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi konventsiya

“Plastikli portlovchi moddalarni topish maqsadida ularni markirovka qilish to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Xalqaro himoyalangan shaxslarga, shu jumladan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Din va e’tiqodga asoslangan har qanday murosasizlik va kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risida”gi deklaratsiya;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOMONIDAN RATIFIKATSIYA QILINGAN XALQARO KONVENTSIYALAR

“Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Shanxay konventsiyasi;

“Havo kemasida sodir etilgan jinoyatlar va ba’zi boshqa harakatlar to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan qonunga xilof tarzdagi xatti-harakatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat qiluvchi aeroportlarda qonunga xilof tarzda zo‘rlik xatti-harakatlarga qarshi kurashish haqida”gi bayonnoma;

“Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konventsiya;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to‘g‘risida”gi konventsiya;

“Terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ishtirokchi-davlatlarining hamkorligi to‘g‘risida”gi shartnoma;

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlarning “Terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaror.

XULOSA

Bugungi kunda xalqaro va mintaqaviy tinchlik-totuvlikni, barqarorlikni ta’minlash masalasida o‘z yechimini kutib yotgan dolzarb muammolar mavjud bo‘lib, ular inson, jamiyat va davlatning osuda hayot faoliyatiga tahdid soluvchi turli buzg‘unchi xatti-harakatlar ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, ekstremizm va terrorizm ko‘rinishida sodir bo‘layotgan noxush voqealar va dahshatli hodisalar, sog‘lom fikrlaydigan har qanday insonning tashvishga solmasdan qo‘ymaydi. Jahonning qaysi mintaqasida sodir bo‘lishidan qat’iy nazar, bunday xunrezliklar bizni yanada ogoh va xushyor bo‘lishga undamoqda. Har bir insonni, jamiyatda va davlatda ogohlik va xushyorlikni

qaror toptirish – insoniyatni ekstremizm va terrorizm balosidan qutqarishning asosiy yo‘li hisoblanadi. Bu borada terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalariga xalqaro, mintaqaviy va hududiy miqyosda katta e‘tibor qaratilib, turli xalqaro va milliy normativ-huquqiy baza yaratilmoqda. Chunki, bir mamlakat yoki mintaqa doirasida chegaralanib qolmagan xalqaro terrorizm va uni oziqlantiruvchi ekstremizm balosiga loqaydlik bilan qarash – insoniyatning boshiga misli ko‘rilmagan fojialarni solishi mumkin. O‘z o‘rnida, ushbu jinoyatlarga qarshi ta‘sir choralari ko‘rilmasa, bu jarayon insoniyatni halokatli jar yoqasiga olib keladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 18 martda qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 19 sentabrdagi “Terroristik, ekstremist yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 maydagi 170-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazish natijasida shaxsga yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
8. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami / Tuzuvchilar Murodov O‘S., Qarshiev A.M. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV, 2015. – 165 b.
9. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom I. Jinoyat haqida ta‘limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.– 441 bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2004 yil 22 iyundagi 167-buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Terrorchilar qo‘llayotgan yangi strategik va taktik harakatlarga



qarshi kurash hamda III xodimlarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Uslubiy Qo'llanma". T. – O'R.IV, 2004. – 127 b.

11. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Toshkent islom universiteti. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005. – 176 b.

12. Raxmanov F.E. Terrorizm. Terrorizmga qarshi ta'sir: Darslik – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2019. – 323 bet.